| | |
|---|---|
| 7. | O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>U.A.Abdullayev - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi mudiri<br>Sh.M.Yodgorov - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>I.M.Shamsiyeva - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi<br>D.J.Urakov – O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM). |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Rektor G. Rixsiyeva
2021-yil "28" 08

# O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TARIXI (POKISTON)

## FANINING O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – | San'at va gumanitar soha |
| **Ta'lim sohasi:** | 220000 | – | Gumanitar fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 | – | Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha) |

**Toshkent – 2021**

| | |
|---|---|
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**<br><br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Pokiston tarixi (o‘quv qo‘llanma). Tuzuvchilar: T. G‘iyosov, N.Abdullayev, U.Abdullayev, Z. Qodirov. –T, 2015.<br>2. N.Abdullayev. Pokiston tarixi (o‘quv qo‘llanma).–T, TDSHI, 2012.<br>3. Hindiston tarixi (o‘quv qo‘llanma). Tuzuvchilar: T.G‘iyosov, N.Abdullayev, U.Abdullayev, Z. Qodirov. –T, 2015.<br>4. T.G‘.G‘iyosov. Hindistonning o‘rta asrlar tarixi (o‘quv qo‘llanma). –T. 2004.<br>5. T.G‘.G‘iyosov. Hindistonning yangi tarixi (o‘quv qo‘llanma). –T. 1999.<br>6. Василев В. История Востока 2-том (учебное пособие). –М., 2004.<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.<br>5. History of Pakistan: Pakistan through ages / Prof. Dr. Ahmad Hasan Dani. – Lahore: Sang-e-Meel publication, 2008.<br>6. Satimov G‘. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri: Sharq xalqlari tarixidan lavhalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.<br>7. История Пакистана. XX век / В.Я. Белокреницкий, В.Н. Москаленко. - М.: ИВ РАН: Крафт+, 2008.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. https://www.history.ru<br>2. https://www.academia.edu<br>3. https://www.ancienttime.com<br>4. https://www.krugosvet.ru<br>5. https://www.world-history.ru |

ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**

- talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Pokiston tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda Pokiston tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Pokistonning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendentsiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, Pokistondagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Pokiston tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqeliklarni tahlil qilish, Pokiston tarixiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- Pokiston va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishlash, Pokiston tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, Pokiston tarixini, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Pokistonning tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida Pokiston tarixini tahlil qilish, Pokistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, Pokistonning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Pokiston tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek, ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Pokiston tarixining asosiy parametrlari va tendensiyalarini yoritish va tahlil qilish, Pokiston tarixining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi* kerak.**

**4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.



| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| MT108 | 2021-2022<br>2022-2023 | 2,3 | 4,4 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | O'zbek/rus | | 4,4 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Pokiston tarixi) | | 120 | 120 | 240 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Pokiston tarixi) fanining nazariy va amaliy asoslari, Pokiston tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, Hindiston subkontinetida qadimgi davlatlarning tashkil etilishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, Janubiy Osiyo mintaqasidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - Pokistonning qadimgi, o'rta asr va yangi tarixi o'rganilayotganda Hindiston subkontinentidagi tarixiy jarayonlarni tadqiq etish, shuningdek, tarixning barcha bosqichlarida Hindiston subkontineti, xususan, Pokistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyoti, davlatchilik jarayonlari tarixi, Janubiy Osiyo mintaqasida XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyat, siyosiy harakatlar va jarayonlar tavsifi, Pokistonning xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va roli, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ichki va tashqi siyosati tarixini talqin etish kabi masalalarni ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**MODUL I. (Qadimgi va o'rta asrlar)**

**1-mavzu. O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Pokiston tarixi) faniga kirish**

Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish, Pokiston tarixini davrlashtirish masalalari, Pokiston tarixi tarixshunosligi, Pokistonning tarixiy rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos muammolari, Hozirgi Pokiston Islom Respublikasining umumiy xususiyatlari.

**2-mavzu. Qadimgi hind sivilizatsiyasining vujudga kelishi (mil. avv. III-II mingyilliklar)**

Protohind sivilizatsiyasi muammolarini o'rganish. Hind vodiysi Sharqdagi eng qadimgi dehqonchilik markazlaridan biri. Hind vodiysidagi qadimgi shaharlar va davlatlar. Xarappa va Moxenjo-Daro madaniyati kashf etilishi. Aholining kundalik hayoti. Savdo va tashqi aloqalar. Til va yozuv. Xarappa sivilizatsiyasi aholisining dini. Xarappa madaniyatining Hindiston va unga qo'shni mamlakatlar tarixiga ta'siri. Xarappa shaharlarining inqirozi.

**3-mavzu. Vedalar davrida Qadimgi Hindiston (mil.avv. XV-VI asrlar)**

Oriylar asl vatani va ularning tarqalishi. Shimoliy Hindistonning oriylar tomonidan bosib olinishi. Mil.avv. I mingyillik o'rtalarida Gang vodiysining o'zlashtirilishi va shimoliy Hindistonda hinduoriylarning yoyilish jarayoni. Veda qabilalarining asosiy mashg'ulotlari. Mulkiy va ijtimoiy tensizlik. Quldorning paydo bo'lishi. Varnalarning paydo bo'lishi. Kasta-tabaqa tuzumi. Shimoliy Hindistondagi qadimiy sulolar va davlatlar.

**4-mavzu. Mil.avv. VI-IV asrlarda Qadimgi Hindistondagi davlatlar**

Mil.avv. VI-IV asrlarda Shimoliy Hindistonda qadimgi davlatlarning vujudga kelishi. Magadxa podsholigi. Bimbisara (mil.avv. 519-491-yillar) davrida diplomatik ittifoqlar tuzish siyosatining keng qo'llanilishi. Magadxa davlatining qudratli davlatga aylanishi. Ahamoniylar hukmdori Doro I ning Shimoli-G'arbiy Hindistonni bo'ysuntirishi. Koshala davlati va uning inqirozi. Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga harbiy yurishi.

**5-mavzu. Mauriylar imperiyasining vujudga kelishi**

Yunon-makedonlarga qarshi kurash. Aleksandr Makedonskiyning vafoti. Chandraguptaning taxtni egallashi. Bindusara davrida mamlakat sarhadlarining kengayishi. Mauriy shohining Misr va selevk imperiyalari bilan o'rnatgan diplomatik aloqalari. Ashoka davrida Mauriylar davlati qudratli imperiyaga erishishi. Ashoka davrida buddizm va dxarmaning keng yoyilishi. Mauriylar davrida shoh hokimiyati. Parishad va sabha. Viloyatlarni boshqarish tizimi. Shahar boshqarmasi. Soliq tizimi.

**6-mavzu. Qadimgi Hindiston madaniyati va san'ati. Diniy ta'limotlar**

Qadimgi hind me'morchilik san'ati. Haykaltaroshlik. Tasviriy san'at. Vedizm. Vedalar davrida din va madaniyat. Veda dini, afsona va marosimlari. Veda adabiyoti. Epik adabiyot. Brahmanizm. Jaynizm. Buddizm. Siddhartha Gautama faoliyati. Dharma. Sangha. Buddizmning keng tarqalishida paydo bo'lgan diniy maktablar va yo'malishlar. Hinduizm. Karma qonuni. Bhaktizm. Sikhizm. Hind diniy ta'limotlari va tasavvuf.

**7-mavzu. I-IV asrlarda Hindiston. Guptalar imperiyasi**

Kushon imperiyasining Hindistonni bo'ysuntirishi. Kushonlar davrida



14. Pokiston Islom Respublikasi ichki va tashqi siyosatida islom omili

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pokiston mustaqillik arafasida
2. Pokiston mustaqilligining ilk bosqichi
3. Pokiston davlatida konstitutsiyaning qabul qilinishi
4. Pokiston davlatida yangi ijtimoiy iqtisodiy siyosat
5. Pokiston davlati siyosiy taraqqiyotining yangi bosqichi (1947-1970)
6. Pokiston davlatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar davri
7. Pokiston davlatining 80-90-yillardagi islohotlar dasturi hamda siyosiy ijtimoiy muammolar
8. Pokiston davlati XXI asr birinchi o'n yilligida
9. Pokiston davlatining tashqi siyostining ustuvor yo'nalishlari
10. Pokiston davlatining mintaqaviy siyosati va Markaziy Osiyo
11. Hindiston va Pokiston davlatlarining yadroviy dasturlari
12. Hindiston va Pokiston davlatlari taraqqiyot yo'lining o'ziga xos jihatlari
13. Pokiston davlatchilik tarixida harbiylar omili
14. Pokiston Islom Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida islom omili
15. Pokiston Islom Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari**

Talaba bilishi kerak:

- O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Pokiston tarixi) fanining maqsad va vazifalari, Pokiston tarixining asosiy bosqichlari, Pokistonning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, Pokiston tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, mil.avv. III-II mingyillikdan to hozirgi kungacha bo'lgan Pokistonning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Pokiston tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Pokistonda tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, turklarning siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Pokistonda ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Pokiston tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Pokiston tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosi, Pokiston tarixining muhim ijtimoiy-siyosiy voqeliklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda

**(1988-1999)**

B.Bxuttoning birinchi hukumati. N.Sharif kabinetining kengashi. B.Bxutto yana hokimiyat tepasida. N.Sharifning hokimiyatni egallashga yana bir bor urinishi.

**13-14-mavzular. XXI asrda Pokiston Islom Respublikasi**

General P.Musharrafning hokimiyat tepasiga kelishi. 1999-2002-yillarda Pokistondagi favqulodda holat. Konstitutsion-parlamentlik boshqaruvi davrida Pokiston.

**III. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**MODUL I. (Qadimgi va o'rta asrlar)**

1. Pokistonning tarixiy rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos muammolar
2. Xarappa va Moxenjo-Daro sivilizatsiyalari
3. Vedalar davrida Qadimgi Hindiston (mil.avv. XV-VI asrlar)
4. Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga harbiy yurishi
5. Ashoka davrida Mauriylar imperiyasi
6. Qadimgi hind diniy ta'limotlari
7. Guptalar imperiyasi davrida Hindiston
8. Xun-eftalitlar bosqini va guptalar imperiyasining qulashi
9. Hindiston subkontinentida feodal munosabatlarning vujudga kelishi
10. Dehli sultonligi davrida Hindiston (1206-1526)
11. Z.M.Bobur va Humoyun davrida Boburiylar saltanati
12. Akbarshoh va Jahongirshoh davrida Boburiylar saltanatining kengayishi
13. Shohjahon va Avrangzeb Olamgir davrida Boburiylar saltanati
14. Boburiylar saltanatining tanazzuli
15. Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi va madaniy hayot

**MODUL II. (Yangi va eng yangi davr)**

1. XIX asrda inglizlarning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati
2. Hindiston XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida
3. Mahatma Gandining siyosiy faoliyati. Hindistonda milliy-ozodlik harakatlari
4. Hindiston II jahon urushi yillarida
5. G'arbiy va Sharqiy Pokistonning shakllanishi
6. Muhammad Ayyub Xonning harbiy hokimiyati
7. A.M. Yahyo Xonning harbiy hokimiyati.
8. Z.A.Bxutto (1971-1977) davrida Pokiston ichki siyosati
9. Z.A.Bxutto (1971-1977) davrida Pokiston tashqi siyosati
10. M.Ziyo ul-Haqning harbiy diktatura rejimining o'rnatilishi
11. B.Bxuttoning birinchi va ikkinchi hukumati
12. N.Sharif davrida Pokiston ichki va tashqi siyosati
13. General P.Musharrafning hokimiyat tepasiga kelishi



Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Kushon imperiyasi siyosiy jiatdan parchalanib ketishi. Chandragupta I davrida davlat va sulola obro'sining oshishi. Chandragupta II ning pul islohotlari. Guptalarning istilochilik yurishlari. Guptalarning davlat tuzumi.

**8-mavzu. Xun-eftalitlar bosqini va guptalar imperiyasining qulashi**

Kumaragupta vafotidan so'ng Guptalar imperiyasi. Yerga egalik. Xususiy yer egaligining o'sishi. Hunarmandchilik. Savdo. Buddizmning tunazzuli va hinduizm. Kushonlar va guptalar davri madaniyati. Dramaturgiya va adabiyot. Ilm va fan. Me'morchilik. Tasviriy san'at.

**9-mavzu. Hindiston subkontinentida feodal munosabatlarning vujudga kelishi (VI-XII asrlar)**

Hindistonda feodal tuzumining vujudga kelishi. Hind feodalizmi o'ziga xos xususiyatlari. Ilk feodalizm. Janubiy Osiyoda feodal munosabatlar rivojlanishi. XI–XII asrlarda hind jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Mayda feodal hukmdorlar o'rtasida raqobat va shiddatli kurashning ortishi va mamlakatning parchalanishi. VIII asr boshlaridanoq arab istilochilarining Hindistonga hujumi. XI asr boshlaridan Hindistonda turkiy istilochilar hukmronligining kuchayishi. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga yurishlari.

**10-mavzu. Dehli sultonligi davrida Hindiston (1206-1526)**

Muhammad G'uriy. Dehli saltanati vujudga kelishi. G'ulomlar sulolasi davrida Dehli sultonligi. Eltutmish davrida Shimoliy Hindistonda musulmon harbiy boshliqlarining hukmronligi o'rnatilishi. Mo'g'ul qo'shinlarining Hindistonga bostirib kirishi. Sulton Aloviddin tomonidan odamlarning mol-mulki musodara qilinishi, hindlarni ta'qib etilishi hamda mamlakat iqtisodining barbod qilinishi. Tug'loqiylar hukmronligi. Saidlar sulolasi. Lo'dilar sulolasi. Dehli sultonligida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

**11-mavzu. Z.M.Bobur va Humoyun davrida Boburiylar saltanati**

Zahiriddin Muhammad Boburning dastlabki siyosiy faoliyati. Z.M.Bobur tomonidan Shimoliy Hindistonning bo'ysundirilishi. Ibrohim Lo'diyga qarshi yurish. Panipat yonidagi jang sabablari. Panipat yonidagi birinchi jang (1526-yil 21-aprel). Qanva yonidagi jang (1527-yil 17-mart). Gagradagi jang (1529-yil 6-may). Z.M.Boburning jahon tarixida tutgan o'rni. Humoyunning dastlabki qiyinchiliklari. Humoyunning qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun urinishlari. Humoyun quvg'inda (1540-1555). Hindistondagi saltanatning tiklanishi. Humoyunning vafoti (1555-1556).

**12-mavzu. Akbarshoh va Jahongirshoh davrida Boburiylar saltanatining kengayishi**

Akbarning taxtga chiqishi. Akbar hukmronligi davridagi dastlabki qiyinchiliklar. Boburiylar saltanatining kengayishi. Akbar hukmronligi

davridagi isyonlar. Akbarning jahon tarixida tutgan o'rni. Jahongirshohning taxtga chiqishi. Xusrav isyoni (1606). Jahongirshoh davrida Boburiylar saltanatining kengayishi. Shohjahon va Mahobatxon isyoni. Jahongirshohning tarixda tutgan o'rni.

**13-mavzu. Shohjahon va Avrangzeb Olamgir davrida Boburiylar saltanati**

Shohjahon hukmronligi davridagi isyonlar. Boburiylar saltanatining kengayishi. Taxt uchun olib borilgan jangler (1657-1659). Toj Mahal. Shohjahonning tarixda tutgan o'rni. Avrangzebning hukmdorlik nazariyasi va boshqa dinlarga munosabati. Avrangzeb davrida Boburiylar saltanatining kengayishi. Avrangzebning tarixda tutgan o'rni.

**14-mavzu. Boburiylar saltanatining tanazzuli**

Avrangzeb vafotidan so'ng uning uch o'g'li o'rtasidagi taxt uchun kurashning avj olishi, yaqin va uzoq viloyatlarni imperiyadan ajralib, mustaqil bo'lib ketishi. Bahodirshoh I vafotidan so'ng uning to'rt o'g'li o'rtasida taxt uchun kurashning kuchayishi. Sipohiylar qo'zg'oloni (1857–1859). Bohodirshoh II ning o'z oilasi bilan inglizlarga taslim bo'lishi.

**15-mavzu. Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi va madaniy hayot**

Boburiylar saltanatida markaziy hokimiyat. Saltanatdagi ma'muriy idoralar. Viloyatlar ma'muriyati. Harbiy tizim. Harbiy mansabdorlar tizimi. Adliya ishlari. Saltanatdagi huquq-tartibot mahkamalari. Boburiylar saltanatida soliq va soliq yig'ish ma'muriyati. Maorif tizimi. Boburiylar davri adabiyoti. Boburiylar davri san'ati.

**MODUL II. (Yangi va eng yangi davr)**

**1-mavzu. XIX asrda inglizlarning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati**

XIX asrda Hindistonning iqtisodiy rivoji haqida, ingliz mustamlaka hokimiyati ta'siri ostida sanoatni rivojlanishi haqida tasavvurni shakllantirish. Kapitalistik rivojlanish yo'li, metropoliya, zamindorlar, rayatvariy tizimi, mauzavar tizimi, Hindiston milliy kongressi, "svadeshi" milliy ozodlik harakati. Hindistonni inglizlar zabt etganidan so'ng mamlakatning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy holati ham o'zgardi.

**2-mavzu. Hindiston XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida**

Ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ijtimoiy va diniy islohotchilar faoliyati va ta'lim jamiyatlari. Kongressning o'rnatilishi va faoliyatning birinchi yillari. Kongressning birinchi rahbarlarining asosiy g'oyalari. Millatchilar (ekstremistlar) va mo"tadillar. Hindiston tovarlari. Bengaliyada inqilobiy



guruhlarning faoliyati. Svadeshi va ekstremizm geografiyasining kengayishi.

**3-mavzu. I jahon urushi davrida va undan keyin Hindiston**

Millatchilik harakatlari. Montagu-Chelmsford Gandining hisoboti va islohotlari. Gandi Hindiston siyosiy sahnasida. Janubiy Afrikadagi Gandi. Aximsa va satyagraxa g'oyalari va amaliyoti. Gandining dehqonlarni himoya qilish uchun birinchi chiqishlari. Amritsardagi voqealar ozodlik harakatining burilish nuqtasidir. Birinchi fuqarolik kampaniyasi. Itoatsizlik 1920-1922 yillar Hamkorlik qilmaslik amaliyoti. Dehqonlar harakati va kooperatsiya bo'lmagan kompaniya. Ishchilarning kooperatsiyadan tashqari kompaniyada ishtirok etishi.

**4-mavzu. Hindiston II jahon urushi yillarida**

Hindistonni urushayotgan deb e'lon qilish. Hindiston siyosiy partiyalarining dunyo voqealariga munosabati. 1940-yilgi fuqarolik itoatsizligining uchinchi kampaniyasi. Eksa kuchlariga qarshi kurashda Hindistonning hissasi. Urush paytida Angliya-Hindiston qurolli kuchlari.

**5-mavzu. Davlatning tuzilishi. Parlamentarizmning birinchi tajribalari (1947-1958)**

"Bo'linish jarayoni" dramasi. Siyosiy qurilish bosqichlari. G'arbiy va Sharqiy Pokistonning shakllanishi. Konstitutsiyani qabul qilish. Kuchayib borayotgan ichki siyosiy inqiroz

**6-7-mavzular. Pokiston ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili (1958-1971)**

Muhammad Ayyub Xonning harbiy hokimiyati. Fuqarolik boshqaruvini tiklash. Muhammad Ayub Xon davrida Pokiston avtoritar boshqaruvi. A.M. Yahyo Xonning harbiy hokimiyati.

**8-9-mavzular. Z.A.Bxutto (1971-1977) davrida fuqarolik boshqaruvining tiklanishi**

Inqirozdan chiqish yo'lini izlash. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. Siyosiy o'zgarishlar. Yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi. Tashqi siyosiy kursning yutuq va kamchiliklari. Iqtisodiy qiyinchiliklar va ichki siyosiy muammolarning kuchayishi

**10-mavzu. M.Ziyo ul-Haqning harbiy-burokratik rejimi (1977-1988)**

Harbiy diktaturaning o'rnatilishi (1977-1985). Harbiy rejimning bekor qilinishi. M. Ziyo-ul-Haq rejimining tashqi siyosati. M. Ziyo-ul-Haq davrida Pokiston iqtisodiyoti.

**11-12-mavzular. Pokiston parlamentlik demokratiya davrida**